

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS****Asror Abdullayevich Sabirov***Mamun University, Teacher of German Language**Department of Western Languages and Literature**E-mail: sabirov_asror@mail.ru**Khorezm, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: term, terminology, Western terminology studies, Eastern terminology studies, Vienna School, Soviet School, Old Turkic language, Early Turkic language, Old Uzbek language, independence period, polysemy, accuracy, monosemy, systematicity, international character.

Received: 05.12.25**Accepted:** 06.12.25**Published:** 07.12.25

Abstract: This article examines the factors influencing changes in the lexical composition of a language, the role of terms as the core of its lexical system, and their significance in linguistics. It also analyzes the stages of terminology development on a global scale and highlights its distinctive characteristics. The approaches of Western and Eastern schools of terminology, as well as the ideas proposed by several prominent linguists, are presented in a consistent manner.

TILSHUNOSLIKDA TERMINLARNING O'RNI**Asror Abdullayevich Sabirov***Nemis tili fani o'qituvchisi**Ma'mun universiteti, G'arb tillari va adabiyoti kafedrası**E-mail: sabirov_asror@mail.ru**Xorazm, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Termin, terminologiya, G'arb terminshunosligi, Sharq terminshunosligi, Vena maktabi, Sovet maktabi, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili, mustaqillik davri, polisemantika, aniqlik, monosemiya, tizimlilik, xalqaro xususiyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada til lug'at tarkibining o'zgarish sabablari, leksik qatlamining asosi bo'lmish terminlarning tilshunoslikdagi o'rnini, dunyo miqyosidagi rivojlanish bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan tahlil olib borildi. Bu borada G'arb va Sharq terminshunoslik maktablarining yondashuvlari hamda bir qancha tilshunos olimlarning ilgari surgan g'oyalari izchil yoritildi.

РОЛЬ ТЕРМИНОВ В ЛИНГВИСТИКЕ

Асрор Абдуллаевич Сабиров

Преподаватель немецкого языка

Университет Мамун, кафедра западных языков и литературы

E-mail: sabirov_asror@mail.ru

Хорезм, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: термин, терминология, западное терминоведение, восточное терминоведение, Венская школа, советская школа, древнетюркский язык, старотюркский язык, староузбекский язык, период независимости, полисемия, однозначность, моносемия, системность, интернациональный характер.	Аннотация: В данной статье проведён анализ причин изменения лексического состава языка, роли терминов как основы лексической системы и их места в лингвистике, этапов развития терминологии в мировом масштабе, а также её специфических особенностей. Последовательно освещены подходы западной и восточной терминологических школ, а также идеи ряда известных лингвистов, внесших вклад в формирование современного терминоведения.
--	--

Kirish. Har bir til shu tilga mansub xalqning moddiy va ma'naviy dunyosini butun borligicha o'zida aks etliruvchi yorqin ko'zgu bo'lib, insonning mehnat va ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, jamiyatda sodir bo'lgan har qanday voqelik yoki o'zgarish, birinchi navbatda, tilda o'zini namoyon etadi. Tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida tilning lug'at tarkibi tadrijiy ravishda doimo rivojlanib, boyib boradi. Bu boyish jamiyat rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan yangi tushunchalarni ilodalovchi yangi so'zlar, nomlarning vujudga kelishi hisobiga sodir bo'ladi. Tilning lug'at tarkibi, uning leksik-semantik sistemasi doimo o'zgarib boradi, ayni paytda, jamiyat uchun keraksiz holga kelgan tushuncha yoki predmet nomlarini ifodalab kelgan so'zlar arxaik so'z sifatida iste'moldan chiqib, uning o'rnini yangi so'zlar egallaydi. Lekin iste'moldan chiqqan so'zlar miqdori yangi paydo bo'lgan so'zlarga nisbatan ancha kam bo'ladi. Biroq ba'zi hollarda buning aksi ham bo'lishi mumkin. Albatta, lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida, tilning tabiati, til taraqqiyoti qonuniyatlari asosida ro'y beradi. Bunda ikki asosiy hodisa kuzatiladi:

1. Jamiyat va tabiatdagi narsa-hodisalarning yo'qolishi bilan ularning ifodachisi bo'lgan so'zlar ham yo'q bo'ladi, hozirgi til strukturasi (lug'at sistemasidan) chiqadi va tarixiy so'zlarga aylanadi.

2. Tilning takomillashuvi jarayonida narsa-hodisaning mohiyatini aniq, to'la va to'g'ri ifodalay olmaydigan lug'aviy birliklar iste'moldan chiqib, ularning o'rnini hodisani aniq, to'g'ri va to'la ifodalaydigan lug'aviy birliklar egallaydi. Ushbu jarayonda terminlar alohida o'rin tutadi,

chunki ular fan sohalarini tartibga soluvchi, tushunchalarni aniq belgilovchi, ilmiy tafakkurning shakllanishida vositachilik qiluvchi leksik birliklardir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy-lingvistik, konseptual tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Gʻarb terminshunosligi (Wüster, Cabré, Temmerman), Sovet maktabi (Lotte, Reformatskiy, Vinogradov, Danilenko) hamda Sharq ilmiy anʼanalari (Sibavayh, Farobiy, Beruniy) asosiy nazariy manba sifatida tanlandi. Shuningdek, turkiy tillar terminologiyasining tarixiy bosqichlari Hamidulla Dadaboyev tasnifi asosida qayta talqin qilindi.

Natijalar (Results). Tahlillar shuni koʻrsatadiki, terminologiya ikkita asosiy yoʻnalishda rivojlangan:

1. Gʻarb terminshunosligi yondashuvi – bu davr XX asrning birinchi yarmiga toʻgʻri kelib, ilm-fan tarmoqlarining kengayishi va ilmiy aloqa vositalarining standartlashtirilishi zarurati terminshunoslikni mustaqil soha sifatida ajralib chiqishiga sabab boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Mazkur yondashuvda Vena va Sovet maktablarining oʻrnini alohida takidlab oʻtish darkor.

- Vena terminologiya maktabining shakllanishi avvalo, avstriyalik olim Eugen Wüster nomi bilan bogʻliq boʻlib, oʻzining mashhur 1931-yidagi texnik tildagi leksik birliklarga bagʻishlaganidan “Internationale Sprachnormung in der Technik, besonders in der Elektrotechnik” doktorlik dissertatsiyasida terminlarni standartlashtirish zaruriyatini asoslab berdi hamda keyinchalik terminshunoslikni alohida fan sifatida shakllantirdi [5;1931]. Wüster konsepsiyasiga koʻra, terminlar ilmiy kommunikatsiyaning obyektiv birligi boʻlib, ularni izchil tasniflash fanlararo muloqotni soddalashtiradi.

Keyingi davrlarda, XX asrning ikkinchi yarmida Gʻarb terminshunosligi kognitiv va kommunikativ paradigmalariga yoʻnaldi. M. Teresa Cabré – Ispan olimasi, oʻzining “Theories of Terminology: Their Description, Prescription and Explanation” asarida terminologiyani “koʻp oʻlchamli” tizim sifatida izohlaydi [12; 6-10 p.]. U terminlarni nafaqat lingvistik birlik, balki kommunikativ va ijtimoiy voqelik sifatida tahlil qiladi. Cabré nazariyasi boʻyicha terminlar uchta darajada — kognitiv (bilim), kommunikativ (aloqa) va lingvistik (ifoda) jihatdan mavjud.

Shuningdek, Rita Temmerman – oʻzining “Towards New Ways of Terminology Description” asarida terminologiyaning yangi paradigmasi sifatida sotsiokognitiv modelni taklif qiladi. Unga koʻra, terminlar qatʼiy statik birliklar emas, balki dinamik ijtimoiy-kognitiv jarayonlarda shakllanadi. Temmerman terminlarning prototipik tuzilishi, metaforik kengayishi va madaniy konnotatsiyasini oʻrganish zarurligini taʼkidlaydi. [14; 61–66 p.]

- Sovet terminologiya maktabi XX asrning 30–80-yillari oraligʻida Vena terminologiya maktabidan tashqari shakllangan boʻlib, jahon terminshunosligi tarixida alohida oʻrin egallaydi.

Bu davrda rus tilshunosligida ilm-fanning tez sur'atlarda rivojlanishi, yangi atamalarning paydo bo'lishi va ularni tizimlashtirish ehtiyoji kuchaygan. Natijada terminologiya nafaqat lingvistik, balki metodologik va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq holda rivojlanishga kirishdi.

Sovet terminshunosligining shakllanishida D.S. Lotte alohida o'rin tutadi. U o'zining "Основы построения научно-технической терминологии" asarida terminlarning tizimlilik va aniqligini asoslab berdi [3; 11–12 c.]. Lottega termin tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "bu muayyan ilmiy konseptni ifodalovchi, nutqda ixtiyoriy sinonimik o'zgarishlarga yo'l qo'ymaydigan maxsus birlikdir." [3; 72–76 c.] U terminlar tizimini tuzishda mantiqiy tuzilma, paradigmatic aloqadorlik va konseptual chegaralanish tamoyillariga tayanadi.

Lotte terminologiyani texnik soha doirasidan kengaytirib, uni ilmiy tafakkur strukturasi tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, u termin yaratishda xalqaro elementlarning o'rnini, til milliy xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlagan [3; 95–97 c.].

A.A. Reformatskiy o'zining "Введение в языкознание" nomli asarida termin va oddiy so'z o'rtasidagi farqni morfologik va semantik mezonlar asosida tahlil qilgan. Uning fikricha, "so'z" umumiy nutq faoliyatining birligi bo'lsa, "termin" maxsus kommunikatsion doirada ishlatiladigan, aniqlik va barqarorlik talab qiluvchi birlikdir [1; 147–150 c.].

Reformatskiy terminlarning asosiy belgilarini aniqlik, izchillik, sistemalilik va nutqiy neytrallik sifatida belgilaydi. U terminlarni tilda ijtimoiy normalashgan birlik sifatida talqin qilib, ularning leksik ma'nodan farqli ravishda "funksional-xususiy" mazmunga ega ekanligini ta'kidlaydi. [1; 150–151 c.].

Sovet maktabining semantik asoslarini V.V. Vinogradov yaratgan. U "Лексикология и лексикография" nomli asarida terminlarning umumiy til leksikasidan farqli ravishda qat'iy denotativ aniqlik va referensial barqarorlikka ega ekanligini ta'kidlaydi [18; 44–45 c.].

Muallifning fikriga ko'ra, termin ma'lum bir ilmiy-professional muhitda qo'llanadigan maxsus birlik bo'lib, u nutqiy kontekstdan mustaqil ravishda o'z obyektiga barqaror ishora qiladi. Shuningdek, terminlar alohida tizimda mavjud bo'lishi va shu tizim tarkibida o'z semantik chegaralarini saqlashi lozim [18; 46–48 c.].

Vinogradov terminlarni ikki darajaga ajratadi:

1. Fan ichidagi terminlar – faqat tor mutaxassislar doirasida ishlatiladigan maxsus birliklar;
2. Umummadaniy terminlar – keng jamoatchilik nutqiga kirib kelgan terminlar.

Bu tasnif terminologiya va leksikologiya o'rtasidagi o'zaro munosabatni chuqurroq anglashga imkon berdi.

V.P. Danilenko terminshunoslikni kompleks fan sifatida rivojlantirgan olimlardan biridir. U o'zining "Русская терминология: Опыт лингвистического описания" asarida terminlarning

tizimli aloqalarini, ularning paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini lingvistik jihatdan tahlil qilgan [17; 38–46 c.].

Danilenko terminlar tizimini quyidagicha talqin qiladi:

- har bir termin ma'lum tushuncha sistemasida o'z o'rniga ega;
- tizimda terminlarning bir-biri bilan irodaviy va mantiqiy bog'liqligi mavjud;
- terminlarning semantik o'zgarishi ham tarmoq rivojlanishiga bog'liq.

U terminologik tizimlarning tilda leksik tizim bilan uzviy aloqadorligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Danilenko terminologiyani sinxron (bir davrda mavjud holati) va diaxron (tarixiy rivojlanishi) jihatlarini alohida farqlash zarurligini asoslagan [17; 68–73 c.].

Xulosa sifatida, Sovet terminologiya maktabi, G'arb (Wüster) modelidan farqli o'laroq, terminlarni semantik, funksional va tizimli birlik sifatida tahlil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Lotte terminlarning texnik tizimlilikini, Reformatskiy — lingvistik xususiyatlarini, Vinogradov — semantik-mantiqiy mohiyatini, Danilenko esa — ularning tizimli modellarini ishlab chiqqan.

Bu olimlarning qarashlari hozirgi zamon terminshunosligining nazariy poydevorini tashkil etadi hamda har bir yondashuv o'z davrida terminologiya fanining konseptual rivojlanish bosqichini ifodalaydi.

2. Sharq terminshunosligi yondashuvi asosan tarjima, leksikografiya va ilmiy tafakkur an'analari tayangan. Arab, fors, turkiy va hind ilmiy adabiyotlarida terminlar yaratish va tartibga solish jarayonlari qadimdan kuzatilgan. Masalan, Sibavayh, Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi olimlar o'z asarlarida grammatik va mantiqiy tushunchalarga terminologik aniqlik berishga intilganlar.

Sharqdagi terminshunoslik an'analari ko'proq leksik izohlar, tarjima va konseptual moslikka asoslangan bo'lsa, G'arbda esa tizimlashtirish, standartlashtirish va texnik aniq-lug'aviy yondashuv ustun bo'lgan. Shu bois zamonaviy terminologiya fani aslida har ikki maktabning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllangan desak to'g'ri bo'ladi.

G'arb terminshunosligi nazariy, formal va texnologik yo'nalishga ega bo'lsa, Sharq terminshunosligi semantik, konseptual va falsafiy aniqlikka asoslangan. Bugungi global terminologiya fani esa Cabré, Temmerman, Kandelaki, Golovin, va Danilenko kabi olimlar qarashlarini Sharq tafakkuri bilan uyg'unlashtirish orqali yangi kognitiv-paradigmatik bosqichga o'tgan.

Butunjahon tilshunosligi tarixida terminologiya masalasi doimo yetakchi ilmiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Mazkur jarayonda o'zbek tilshunoslari ham faol ishtirok etib, turkiy tillarning terminologik qatlamini tarixiy manbalar asosida mukammal tadqiq qilishgan. Xususan, Hamidulla Dadaboyev o'zbek terminologiyasining shakllanish tarixi va rivojlanishini uch asosiy davrga ajratib o'rganadi :

Qadimgi turkiy davr — sof turkiy birliklar va diniy-madaniy o‘zlashmalar.

Eski turkiy davr — arabcha va forsha ilmiy birliklarning faol kirib kelishi.

Eski o‘zbek tili — Navoiy davridagi ichki resurslar asosida termin yaratish.

Ammo o‘zbek terminshunosligi mustaqil fan sifatida XX asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu sohaning rivoji o‘zbek tilining umumiy leksik taraqqiyoti, milliy fan tarmoqlarining kengayishi va davlat tilining ilmiy-texnik faoliyatda qo‘llanilish zaruriyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Aynan shuning uchun ham eski o‘zbek terminshunosligining tarixiy taraqqiyotini shartli ravishda to‘rt bosqichga ajratish mumkin:

1-bosqich (XX asr 50–70-yillari): terminshunoslikka dastlabki yondashuvlar: Bu davrda o‘zbek tili leksikasi, ayniqsa ilmiy atamalar tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ko‘plab terminlar rus tili orqali kirib kelgan.

2-bosqich (XX asr 80–90-yillari): ilmiy-nazariy yondashuvlar shakllanishi: Bu bosqichda terminshunoslik nazariyasi alohida fan sifatida qarala boshladi.

3-bosqich (Mustaqillik davri – 1991–2010-yillar): milliy terminshunoslik paradigmasi: O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, terminshunoslikka milliy asosda yondashuv kuchaydi.

4-bosqich (XXI asr – hozirgi davr): zamonaviy yondashuvlar va kognitiv paradigma: So‘nggi yillarda o‘zbek terminshunosligida kognitiv, tarjimashunoslik va axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan yangi yondashuvlar shakllanmoqda.

Mazkur fan shakllanishining dastlabki bosqichlarida asosan rus terminshunosligi tajribasi (Lotte, Reformatskiy, Danilenko) o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda o‘zbek tilining milliy xususiyatlariga mos nazariy asoslar ishlab chiqildi. Bu borada Sh. Rahmatullaev, A. Hojiyev, N. Mahmudov, Sh. Shoabdurahmonov, U. Tursunov, K. Musayev, O. Usmonov, Sh. Hamidov kabi olimlar terminlarning o‘zbek tili leksik tizimidagi o‘rni va xususiyatlarini o‘rgandilar. Ularning ilmiy ishlari o‘zbek terminshunosligining shakllanishiga asos bo‘ldi.

Shunday qilib, terminologiya fani tilshunoslikda:

- soha tilining standartlashuvi;
- bilimlarni tizimlashtirish;
- milliy tafakkur va ilmiy tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochish;
- tarjima va leksikografik jarayonlarga asos bo‘lish kabi vazifalarni bajaradi.

Bu yondashuvdan kelib chiqib, terminologiyani til tizimidagi ilmiy-nazariy va amaliy markaz deb atash mumkin.

Muhokama. Tahlil natijalari terminlarning til tizimidagi o‘rnini belgilovchi asosiy kategoriyalarni shakllantirishga imkon berdi:

- Aniqlik — Terminning eng muhim belgisi — bu aniqlik, ya'ni ma'no chegarasining qat'iy belgilanganligi. Ullmannning fikricha, “terminologik aniqlik har bir terminning o'z fan sohasi doirasida yagona, noaniqlikdan xoli ma'noni ifodalashidir.” Masalan, “atom”, “sintez”, “grammatika” kabi birliklar faqat tegishli fan doirasida aniq tushunchani bildiradi.[15; 130 s.]

Bloomfield esa bu xususiyatni “ilmiy muloqotdagi mantiqiy aniqlikning kafolati” deb ta'riflaydi. Shu bois terminlarning ma'nosi umumiy til birliklaridan farqli o'laroq, konnotativ yoki obrazli mazmun bilan boyitilmaydi.[10; 140-141 p.];

- Monosemiya (birma'nolilik) — Terminlar, odatda, bir ma'nolilik (monosemiya) tamoyiliga asoslanadi. Bu ularning aniq ilmiy tushunchani ifodalashga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Lotte bu borada shunday deydi: “Har bir termin faqat bitta ilmiy tushunchani bildiradi, aks holda u terminologik tizimning mantiqiy yaxlitligini buzadi.”[3; 39, 74 c.];

- Tizimlilik — Terminlar hech qachon yakka holda mavjud bo'lmaydi; ular terminologik tizim tarkibida o'zaro bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. Wüster terminologiyani tizimlilik xususiyatini “tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy ierarxiya va semantik tarmoqlanish” bilan izohlaydi. [4; 57, 76 S.] Masalan, “fonetika – fonema – artikulyatsiya” yoki “davlat – hukumat – parlament” kabi terminlar bir-biri bilan ierarxik bog'liqdir.

Tizimlilik shuningdek, terminlarning semantik muvofiqligini ta'minlaydi. Bu jihatdan terminologiya mustaqil, lekin o'zaro integrativ sohalarni birlashtiruvchi ilmiy tizim sifatida namoyon bo'ladi;

- Xalqaro xususiyat — Terminlarning yana bir muhim belgisi — ularning xalqaro xususiyatidir. Zamonaviy fan-texnika va siyosatning globallasuvi natijasida ko'plab terminlar xalqaro darajada bir xil shaklda va ma'noda qo'llanadi.

Boiko xalqaro terminlarning bu xususiyatini “fanlararo muloqotning soddalashuvi va terminlarning interlingval moslashuvchanligi” bilan izohlaydi. [2; 113-114 c.] Bu jarayon, ayniqsa, texnologiya, iqtisod va siyosat terminologiyalarida faol kuzatiladi.

Reformatskiyning ta'kidlashicha, xalqaro terminlar turli tillarda barqaror shakllanadi, ular o'zlarining umumiy ilmiy ahamiyati sababli ko'plab sohalarda qo'llanishi kengayadi va natijada fanlararo muloqotni soddalashtiradi. Bunday terminlar tillararo moslashuvchanlik kasb etib, ilmiy-texnik bilimning universallashtirishiga xizmat qiladi. [1; 212 c.].

Bu belgilar terminlarning oddiy leksik birliklardan farqli ravishda fanlararo muloqotda aniqlik va izchillikni ta'minlashini ko'rsatadi. Terminlar nafaqat ilmiy sohalarning leksik asosini, balki jamiyatning intellektual rivojlanishini ham aks ettiradi. Terminologiyani bugungi rivoji G'arb nazariy modellari va Sharq an'analari uyg'unlashuvi natijasida shakllangan kognitiv-paradigmatik yondashuvga tayangan holda davom etmoqda.

Xulosa. Tilshunoslikda terminlar nafaqat maxsus sohalarning ifoda vositasi, balki tildagi ilmiy tafakkur, konseptual tizim va ijtimoiy taraqqiyotning ko'zgusi sifatida ham alohida o'rin tutadi. Ular har qanday fan tarmog'ining rivojlanish darajasini, uning ilmiy tushunchalar tizimi qanchalik mukammal shakllanganini ko'rsatib beradi. Shu bois terminologiya fani bugungi kunda lingvistikaning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Terminlar orqali inson tafakkurining ixtisoslashuvi va bilimlarning differensiallashuvi hamda jamiyatdagi kommunikativ ehtiyojlarning murakkablashuvi ifodalanadi. Ularning shakllanishi, ma'no o'zgarishi va tizimliliigi til rivojining ichki qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, terminlarning milliy tilga moslashuvi, ularning tarjimada ekvivalentini topish masalasi til siyosati, madaniyat va ijtimoiy ong bilan ham bevosita aloqador.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham terminologik tizimlarni tadqiq etishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Xususan, fan, texnika, siyosat, axborot texnologiyalari va ijtimoiy sohalarda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning semantik xususiyatlarini o'rganish zamonaviy lingvistikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida milliy terminshunoslikning xalqaro ilmiy jarayonlarga integratsiyalashuvini ta'minlamoqda.

Umuman olganda, terminlarning tilshunoslikdagi markaziy o'rni shundan iboratki, ular til tizimining ilmiy, mantiqiy va konseptual asosini tashkil etadi. Terminlar tildagi umumiy leksik qatlam bilan o'zaro aloqada bo'lib, ma'lum bir fan yoki sohaning nazariy tuzilmasini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, terminologik tadqiqotlar tilshunoslikning nafaqat leksikologiya, balki semasiologiya, tarjimashunoslik va kognitiv lingvistika kabi tarmoqlari uchun ham metodologik asos yaratadi.

Shunday qilib, terminlarning lingvistik tizimdagi markaziy o'rni ularning ilmiy tafakkur vositasi sifatidagi funksiyasi, ma'no aniqligi, tizimliliigi va xalqaro muloqotdagi kommunikativ ahamiyati bilan belgilanadi. Bu esa terminologiya fanining dolzarbligini, uning tilshunoslik va amaliy fanlar uchun metodologik ahamiyatini yana bir bor namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] А.А. Реформатский. Введение в языкознание. Москва: Высшая школа. 1967. 147-150, 150-15, 212 с.
- [2] А. И. Бойко. Лексикология английского языка. БарГУ, 2010 113-114 с.
- [3] Д.С. Лотте. Основы построения научно-технической терминологии. М., 1961. 11-12, 15-22, 39, 74, 72-76, 95-97 с.
- [4] E. Wüster. Einführung in die Allgemeine Terminologielehre. 1979. 11–30, 57–76 S.
- [5] E. Wüster. Internationale Sprachnormung in der Technik, besonders in der Elektrotechnik. Berlin: Springer. 1931

- [6] G. Budin. Wüsters Allgemeine Terminologielehre – ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaft, Logik, Ontologie, Informatik und den Sachwissenschaften. 2025. 245 S.
- [7] H. Dadaboyev, “O‘zbek terminologiyasi”. Toshkent: Yoshlar Nashriyot uyi, 2019. 13-16 b.
- [8] I. Yo‘ldoshev, O‘. Sharipova. „Tilshunoslik asoslari”. Toshkent, 2007
- [9] J. Lyons. Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge University Press. 1995. 87 p.
- [10] L. Bloomfield. Language. New York: Holt, Rinehart & Winston. 1933. 140-141 p.
- [11] M. Mahmudova. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH»173 b.
- [12] M. T. Cabré. Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins. 1999. 6-10 p.
- [13] N.A.Husanov, N.A. Dilmurodova. “O‘zbek tili” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: TMI, 2018. 366 b.
- [14] R. Temmerman. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. Amsterdam: John Benjamins. 2000. 61-66 p.
- [15] S. Ullmann. Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. Oxford: Basil Blackwell. 1962. 130, 243 p.
- [16] В.М. Лейчик. Терминоведение: предмет, методы, структура. 2009. —1-2, 3, 17-18, 23 с. 4-е изд.
- [17] В.П. Даниленко. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. Москва: Наука. 1977. 38-46, 68-73 с.
- [18] В.В. Виноградов. Лексикология и лексикография. Москва: Наука. 1977. 44-45, 46-48 с.
- [19] - В.В. Виноградов. Вестник Владимирского юридического института. 2011, №3(20) 104 с.